



TOURISM POTENTIAL IN SAMARKAND REGION, THE EMERGENCE AND DEVELOPMENT OF NEW DIRECTIONS: A HISTORICAL APPROACH

Dilfuzakhon A. Ismoilova

Associate Professor, PhD in History

Department of Social-Humanitarian Sciences and Physical Education

Navoiy Mining and Technology University

Navoiy, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Samarkand, tourism history, ecotourism, agrotourism, pilgrimage tourism, gastronomic tourism, Silk Road Samarkand, historical process, regional development.

Received: 08.08.25

Accepted: 09.08.25

Published: 10.08.25

Abstract: This article analyzes the step-by-step development of the tourism potential of the Samarkand region based on historical processes. The author identifies five major historical stages of tourism development in the region. Special attention is given to the period after 2017, when state policy began placing increased emphasis on tourism. The emergence of new branches such as ecotourism, agrotourism, gastronomic tourism, and pilgrimage tourism is discussed and supported by specific data. The article also examines, from a historical perspective, how regional cultural and economic activity has grown through initiatives like the "Silk Road Samarkand" complex, international festivals, newly recognized sacred sites, and rural tourism. The study argues that the region's tourism potential is not a natural occurrence but the result of a centuries-long historical evolution.

SAMARQAND VILOYATIDA TURIZM SALOHIYATI, YANGI YO'NALISHLARINING PAYDO BO'LISHI VA RIVOJLANISHI: TARIXIY YONDASHUV

Dilfuzaxon A. Ismoilova

Dotsenti, tarix fanlari nomzodi

"Ijtimoiy-gumangitar fanlar va jismoniy tarbiya" kafedrasи

Navoiy konchilik va texnologiyalar universiteti

ismoilovadilfuzad177@gmail.com

Navoiy, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so‘zlar: Samarqand, turizm tarixi, ekoturizm, agroturizm, ziyyarat turizmi, gastronomik turizm, Silk Road Samarkand, tarixiy jarayon, hududiy rivojlanish.

Annotasiya: Mazkur maqolada Samarqand viloyatining turizm salohiyati tarixiy jarayonlar asosida bosqichma-bosqich shakllangani tahlil qilinadi. Muallif viloyatdagi turizm rivojlanishini besh asosiy tarixiy bosqichga ajratgan. 2017 yildan boshlab davlat siyosatida turizmga berilayotgan alohida e’tibor tufayli viloyatda ekoturizm, agroturizm, gastronomik turizm va ziyyarat turizmi kabi yangi tarmoqlar vujudga kelgani dalillarga asoslanib bayon etilgan. Shuningdek, maqolada “Silk Road Samarkand” majmuasi, xalqaro festivallar, yangi qadamjolar va qishloq turizmi yo‘nalishlari asosida hududiy madaniy va iqtisodiy faoliyat oshgani tarixiy nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Tadqiqot turizmning tabiiy emas, balki ko‘p asrlik tarixiy shakllanish natijasi ekanini asoslaydi.

ТУРИСТИЧЕСКИЙ ПОТЕНЦИАЛ САМАРКАНДСКОЙ ОБЛАСТИ, ВОЗНИКОВЕНИЕ И РАЗВИТИЕ НОВЫХ НАПРАВЛЕНИЙ: ИСТОРИЧЕСКИЙ ПОДХОД

Дильфузахон А. Исмаилова

Доцент, кандидат исторических наук

Кафедра социальных и гуманитарных наук и физического воспитания

Навоийский горно-технологический университет

ismoilovadilfuzab177@gmail.com

Навоий, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Самарканд, история туризма, экотуризм, агротуризм, паломнический туризм, гастрономический туризм, Silk Road Samarkand, исторический процесс, региональное развитие.

Аннотация: В данной статье анализируется поэтапное формирование туристического потенциала Самаркандской области на основе исторических процессов. Автор выделяет пять основных исторических этапов развития туризма в регионе. Особое внимание уделяется периоду после 2017 года, когда в государственной политике усилилось внимание к сфере туризма. На основе конкретных данных показано возникновение таких новых направлений, как экотуризм, агротуризм, гастрономический и паломнический туризм. Кроме того, в статье с исторической точки зрения рассматривается повышение культурной и экономической активности региона за счет таких факторов, как туристический комплекс «Silk Road

Samarkand», международные фестивали, новые святые места и селский туризм. В исследовании доказывается, что туристический потенциал региона сформировался не естественным образом, а как результат многовекового исторического процесса.

Kirish

Samarqand shahri va uning atrofi yuz asrlar davomida jahon sivilizatsiyasida muhim o‘rin tutib kelgan. U Buyuk Ipak yo‘lidagi asosiy nuqta bo‘lgan, bu esa uning sayyoohlar uchun doimiy ravishda qiziqarli maskan bo‘lib qolishini ta’minlagan. Turizm tushunchasi rasmiy siyosat darajasida 20-asrning ikkinchi yarmida shakllansa-da, uning ildizlari qadim zamonlarga borib taqaladi. Mazkur maqola Samarqand viloyatida turizmning tarixiy rivojlanish bosqichlarini tahlil qiladi va yangi yo‘nalishlarning qanday paydo bo‘lganini izohlaydi.

Adabiyotlar tahlili

Samarqand viloyatida turizmning rivojlanish tarixi va zamonaviy yo‘nalishlarining vujudga kelishining manbaviy asoslari quyidagilarda namoyon bo‘ladi. Avvalo, O‘zbekiston, xususan Samarqand viloyatida turizmning rivojlanishi bilan bog‘liq jarayonlarning huquqiy-normativ asoslari, viloyatda turizm rivojining o‘ziga xos xususiyatlariga oid turizm qo‘mitasi va arxiv hujjatlari to‘plami, viloyat kesimida turistlar oqimidagi o‘zgarishlarga aloqador dalillarni o‘z ichiga qamrab olgan statistik ma’lumotlar ushbu mavzuni mazmun-mohiyatini boyitishga katta yordam beradi. Ushbu hujjatlar to‘plamiga ega bo‘lishda o‘zbekiston respublikasi Milliy arxivi fondlarida saqlanayotgan yig‘ma jildlar, Samarqand viloyati xokimligi va davlat arxivining qator fondlaridagi ma’lumotlar orqali o‘rganilayotgan ishning manbaviy asosi yaratiladi.

O‘rganilayotgan mavzuning yana bir manbaviy asosi sifatida xizmat qila oladigan ma’lumotlarni davriy matbuot nashrlaridan olish maqsadga muvofiq sanaladi. 1991-2025-yillar oralig‘ida chop etilgan Respublika darajasidagi “Xalq so‘zi”, “O‘zbekiston ovozi”, viloyatdagi “Zarafshon”, “Samarkandskiy vestnik” gazetalarida chop etilgan bir qator gazetalarda viloyatda turizm sohasidagi o‘zgarishlar, sohaning rivojlanishi, undagi yangilik va yutuqlar xususidagi manbaviy maqolalar chop etilgan. Ushbu ma’lumotlar orqali viloyatda sohaning mustaqillik yillarida rivojlanib borish, uning ijtimoiy ahamiyati va iqtisodiy samarasi, yutuq va kamchiliklariga aloqador qimmatli dalillarni tahlil qilish imkonи mavjud.

Mavzuni o‘rganishda yana bir muhim ma’lumotlar majmui sifatida o‘rganilayotgan mavzuga oid ilmiy adabiyotlarda nashr etilgan tadqiqotlar natijalari muhimdir. Ta’kidlash joizki mavzuga oid adabiyotlarning aksariyat qismi iqtisod sohasidagi tadqiqotlardir.[1] Ana shunday ishlardan biri M.X. Sidikovaning Samarqandda zamonaviy shahar madaniyatining rivojlanish

xususiyatlari (1991–2017 yy.) mavzusidagi tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlagan dissertatsiyasida [2] Samarqandda shahar madaniyati rivojlanishining tarixiy bosqichlari, Samarqandda zamonaviy shahar qurilishi, uning tarixiy qismini saqlash masalalari, Samarqand shahar turizmini rivojlantirish, logistika va kommunikatsiya masalalari yoritib berilgan. Tadqiqotchi N. Daminov ham tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori ilmiy darajasini olish uchun olib borgan tadqiqotida ham mustaqillik yillarda Samarqand viloyatida turizm sohasining rivojlanishi va istiqbollari to‘g‘risida to‘htalib o‘tgan.[3] Shuningdek, Samarqand viloyatidagi iqtisodiy jarayonlarga bag‘ishlangan J.X. Rashidov, Z.O.Raximov, N.E. Ibodullaev[4] kabi tadqiqotchilarining disser-tatsiyalarida bozor iqtisodiyotiga o‘tish sharoitida viloyatda mehnat bozo—rini shakllantirish, qishloq xo‘jaligida iqtisodiy islohotlarni chuqur—lashtirish, Samarqand shahri va viloyatda turizm servis xizmatini rivoj—lantirish, viloyatdagi turistik resursslarni rivojlantirish imkoniyatlari kabi masalalar yoritib berilgan.

Tadqiqotda tarixiy-xronologik usul, manba—shunoslik tahlili, arxiv materiallari, 20 - asr boshidan buyongi rasmiy hujjatlar hamda mahalliy tarixchilarining asarlari asos qilib olindi. Shuningdek, davlat dasturlari, turizm bo‘yicha strategiyalar va ularning amaliy natijalari solishtirma asosda o‘rganildi.

Tadqiqotning usullari

Mazkur maqolada Samarqand viloyatida turizm sohasida yangi yo‘nalishlarning paydo bo‘lishi, hamda rivojlanishi jarayonini yoritishda avvalo sohaning viloyatidagi tarixi va zamonaiy holati tarixiy tahlil usuli orqali taqqoslab o‘tildi. Shuningdek, statistik tahlil orqali viloyatdagi sohaga oid rasmiy ma’lumotlar, turistlar oqimi, viloyatdagi turistik infratuzilmaning o‘sish ko‘rsatkichi tahlil qilindi. Qiyoslash usuli turizmneing turli yo‘nalishlaridagi o‘zgarishlar, yangi tashabbuslar hamda mahalliy va xalqaro amaliyot bilan solishtirma tahlil qilindi.

Natijalar

XX - asr boshlarida rus va evropalik arxeolog va sayyoohlar Samarqandni o‘rganishga kirishgan. U paytlar turizm hali tijorat soha sifatida emas, balki madaniy ekspeditsiyalar shaklida mavjud bo‘lgan. Mustaqillikka bo‘lgan davrda (1924 - 1991) Samarqandda sayyoohlilik infrastrukturasi markazlashgan holda shakllandi. 1960 - 70 - yillarga kelib shaharda yirik mehmonxonalar va gidlik xizmatlari tashkil etildi. Mustaqillikdan so‘ng (1991-2024) turizmning yangi yo‘nalishlari - ziyorat turizmi, tarixiy meros turizmi, hamda so‘nggi yillarda ekoturizm va gastroturizm yuzaga keldi. 2022-2024 yillarda “Samarqand - II renessans markazi” g‘oyasi ostida tarixiy merosni jahon miqyosida namoyon etish uchun Halqa shahar qismi qayta tiklandi va “Silk Road Samarkand” majmuasi barpo etildi.

Tahlil va muhokama. Fikrimizcha Samarqand viloyatida turizm salohiyatining shakllanishi va rivojlanishini besh tarixiy bosqichga bo‘lish mumkin: 1. Qadimiy Ipak yo‘li davri (b.z. avv. I mingyillik - XIV asr) - xalqaro karvonlar, mehmonxona va karavonsaroy tizimi.

2. Temuriylar davri (XIV–XV asr) - Samarqandni yirik siyosiy va madaniy markaz sifatida dunyoga tanitish.

3. Rus va Sovet davri (XIX–XX asr) - tarixiy yodgorliklarni himoya qilish va sayyohlik infratuzilmasini yaratish.

4. Ilk mustaqillik yillari (1991-2016) - sayyohlikda tijoratlashuvning boshlanishi.

5. Yangi uyg‘onish davri (2017-hozirgacha) - tarixiy merosni zamonaviy texnologiyalar asosida namoyon qilish, yangi turizm yo‘nalishlari va xalqaro forumlar tashkil etilishi.

Bu tarixiy davrlar orqali ko‘rinadiki, Samarqandning turizm salohiyati tabiiy yoki sun’iy ravishda emas, balki ko‘p asrlik tarixiy jarayonlar natijasida shakllangan.

Respublika prezident Sh.M. Mirziyoev tomonidan turizmni rivojlantirishga bo‘lgan e’tiborning kuchayishi natijasida Samarqand viloyatida an’anaviy tarixiy-me’moriy turizm bilan bir qatorda so‘nggi yillarda yangi turizm yo‘nalishlari shakllanmoqda. Birgina 2024 yilning 10 oyi davomida 18 me’yoriy hujjat - Prezidentning 3 farmoni va 6 qarori, hukumatning 9 qarori tasdiqlangani ham fikrimizni isbotlaydi.[5] Bu yo‘nalishlarning rivojlanishi turizm sohasining diversifikatsiyasiga va hududiy iqtisodiy faoliyotga xizmat qilmoqda. Samarqandning rang - barang tabiatga egaligi hududda ekoturizmni rivojlanishida katta imkoniyat yaatadi. Uning tog‘li hududlari - Urgut, Nurobod va Poyariq tumanlari tabiatni asoslangan ekoturizm uchun katta imkoniyatlarga ega. Hazrati Dovud ziyyoratgohi atrofida ekoturistik marshrutlar shakllantirilmoqda. Uning natijasi o‘laroq 2023 yilda Samarqand viloyatida 5 ta yangi ekoturistik yo‘nalish ishlab chiqildi.[6]

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 3 fevraldagagi “Qishloq turizmini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-107-sonli qarorida agroturizmga alohida e’tibor qaratilganligi [7] Samarqand viloyatining qishloq xo‘jaligiga boy tumanlari (Urgut, Bulung‘ur) agroturizmni rivojlantirish uchun katta imkoniyat yaratdi. SHu sababli mehmonlar an’anaviy uzumzorlar, bog‘lar va dehqonchilik faoliyatida ishtirok etish imkoniga ega bo‘lishmoqda. Turizm sohasida jadal rivojlanib borayotgan yo‘nalishlardan biri gastronomik turizm bo‘lib, Samarqand milliy taomlari (palov, somsa, lag‘mon) orqali sayyohlarga taom tayyorlash jarayonini namoyish etish va master-klasslar tashkil etish orqali bu yo‘nalish rivoj topmoqda. Shu tariqa “Gastronomik turizm mintaqaviy brendlari orqali Samarqandni tanitmoqda.”[8]. Shuningdek an’anaviy ziyyorat joylaridan tashqari, kichik mahalliy muqaddas maskanlar – qabristonlar, qadamjolar ham yangi yo‘nalish sifatida rivojlanishi viloyatda ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy rivojlanishiga katta yordam bermoqda. 2022 yilda ziyyorat turizmi sohasida 12 ta yangi qadamjo turistik xaritaga kiritilishi

viloyatga turstlar oqimining yanada oshishiga imkoniyat yaratdi. Madaniy va festival turizmi (MICE) “Sharq Taronalari”, “Lazgi” va boshqa xalqaro festivallar, shuningdek, “Silk Road Samarkand” majmuasidagi tadbirlar Samarqandning zamonaviy turistik qiyofasini shakllantirmoqda. Birgina 2022 yilda Samarqandda o’tkazilgan xalqaro tadbirlar 300 mingdan ortiq turist oqimini ta’minladi.[10] “Sharq taronalari” festivali birinchi marta o’tkazilganida 31 ta mamlakat vakillari qatnashgan bo‘lsa, 2024 yilda qit’alardagi 80 ga yaqin davlat vakillar ishtirok etdilar.[11] Bu esa O‘zbekistonda, xususan Samarqandda MISE turizmi jadal rivojlanib borayotganligining dalilidir.

Xulosa. Tarixiy tahlil shuni ko‘rsatadiki, Samarqand viloyatida turizmning shakllanishi tabiiy, geografik, siyosiy va madaniy omillar asosida yuzaga kelgan. Yangi yo‘nalishlar ham aynan shu tarixiy asoslarga suyangan holda rivojlanmoqda. Bugungi kunda tarixiy merosni asrabavaylash va uni zamonaviy sayyohma moslashtirish - Samarqandning turizm kelajagini belgilab bermoqda. Davlat siyosatida tarixiylikni inobatga olgan holda sayohatni tashkil etish, nafaqat madaniy merosni saqlash, balki iqtisodiy rivojlanishga ham turtki bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Arabov N.U. Mehnat bozori infratuzilmasining rivojlanishi (Samarqand viloyati misolida) Iqtি. fan. nom. diss ... -Toshkent, 2008.- 176 b., Rashidov J.R. Qishloq xo‘jaligida iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish sharoitida servis xizmatlarni rivojlantirish muamolari (Samarqand viloyati misolida).Iqtি. fan. nom. diss ... avto-referati. -Toshkent, 2004.-28 b.; Raximov Z.O.Turizm desti-natsiya-lari-da strategik rejorashtirishning tashkiliy mexanizmini takomillashtirish (Samarqand shahri misolida). Iqtি. fan. nom. diss ... avto-referati. - Samarqand, 2012. -26.; Ibodullaev N.E. Turistik resursalar-dan foydalanish samaradorligini oshirish imkoniyatlari (Samarqand viloyati misolida). Iqtি. fan. nom. dissertatsiyasi. - Samarqand, 2010.-166 b.
2. Sidikova M.X. Samarqandda zamonaviy shahar madaniyatining rivojlanish xususiyatlari (1991-2017yy.). Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi aftoreferati. -Toshkent, 2019. - 24 b.
3. Daminov N. Mustaqillik yillarda Samarqand viloyatida ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy aloqalarning rivojlanish tarixi va istiqbol-lari (1991 – 2016 yy.) Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. - Samarqand, 2019, - 190 b.
4. Rashidov J.R. Qishloq xo‘jaligida iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish sharoitida servis xizmatlarni rivojlantirish muamolari (Samarqand viloyati misolida).Iqtি. fan. nom. diss ... avto-referati.-Toshkent, 2004.-28 b.; Raximov Z.O.Turizm destinatsiyalarida strategik rejorashtirishning tashkiliy mexanizmini takomillashtirish (Samarqand shahri misolida). Iqtি. fan. nom. diss ... avto-referati. - Samarqand, 2012. – 26.; Ibodullaev N.E. Turistik

resurslardan foyda-la-nish-samara-dorligini oshirish imkoniyatlari (Samarqand viloyati misolida). Iqtifanom. dissertatsiyasi. - Samarqand, 2010. - 166 b.

5. <https://www.uzbekembassy.in/ozbekiston-turizmi-2024-yil-qanday-yutuqlarga-erishdi/?lang=uz>
6. O'zbekiston Respublikasi Ekoturizm Assotsiatsiyasi hisobotidan, 2023
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori, 2022 yil 3 fevral, PQ-107сон.
8. Jo'rayev T.X. "Turizm va zamonaviy yondashuvlar", 2021, 89-bet
9. https://uza.uz/oz/posts/ozbek-turizmi-2024-yil-qanday-yutuqlarga-rishdi_673628
10. Jahon Turizm Tashkiloti (UNWTO), 2022 yilgi O'zbekiston bo'yicha sharhi
11. Prezident Sh. Mirziyoevning "Sharq taronalari" festivalida so'zlagan nutqi. https://president.uz/oz/lists/view/7498?utm_source=chatgpt.com